



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/HPTQ9675

ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING REFLEKSIV KO'NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Qodirova Dilnoza Alisher qizi

*Alisher Navoiy nomidagi**Toshkent davlat o'zbek tili va**adabiyoti universiteti tayanch doktoranti**kodirovaa.95@gmail.com**ORCID ID :0009-0006-1807-5176*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktablardagi adabiyot darslarida o'quvchilarning refleksiv ko'nimalarini rivojlantirishning bugungi kungacha bo'lgan amaliy va nazariy ahamiyati haqida so'z boradi. Refleksiya o'quvchilarning o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarini tahlil qilish hamda ularga baho berish qobiliyatini shakllantiradi. Maqolada refleksiyaning nazariy asoslari, rivojlanish bosqichlari va uni rivojlanish usullari batafsil bayon qilingan. Refleksiya orqali o'quvchilar nafaqat adabiy asarlarni chuqur tushunib o'rganadilar, balki shaxsiy dunyoqarashlarini ham boyitadilar. Ushbu tadqiqot o'qituvchilarga adabiy ta'lim jarayonida refleksiya imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Annotation: In this article, students in literature classes in schools the practical and theoretical importance of the development of reflexive companies to this day is discussed. Reflection builds students' ability to analyze and evaluate their own thoughts, feelings, and behaviors. The theoretical foundations of reflection, stages of development and methods of its development are described in detail in the article. Through reflection, students not only gain a deeper understanding of literary works, but also enrich their personal worldviews. This study serves as a guide for teachers to effectively use the possibilities of reflection in the process of literary education.

Аннотация: В данной статье учащиеся на уроках литературы в школах обсуждается практическая и теоретическая значимость развития рефлексивных компаний по сей день. Рефлексия развивает способность учащихся анализировать и оценивать свои мысли, чувства и поведение. В статье подробно описаны теоретические основы рефлексии, этапы развития и методы ее развития. Путем размышления учащиеся не только получают более глубокое понимание литературных произведений, но и обогащают свое личное мировоззрение. Данное исследование служит руководством для учителей по эффективному использованию возможностей рефлексии в процессе литературного образования.

Kalit so'zlar: *adabiy ta'lim, refleksiya, o'quvchilarni rivojlantirish, ijodiy fikrlash, pedagogik texnologiyalar, munozara, shaxsiy dunyoqarash.*

“Refleksiya” tushunchasi qadimdan mavjud bo'lib, u ilk bor qadimgi yunon faylasuflari tomonidan shakllantirilgan. Ayniqsa, Suqrot, Platon va Aristotel kabi faylasuflar asarlarida uchraydi. Suqrot o'z-o'zini anglash va o'z fikrlarini tahlil qilishni muhim deb hisoblagan. U “O'rganilmagan hayot yashashga arzigulik emas”,- degan mashhur iborani aytgan. Keyinchalik refleksiya tushunchasi Yevropa falsafasida chuqurroq rivojlandi. Ayniqsa, Rene Dekart XVII asrda refleksiyani markaziy tushuncha sifatida ishlatgan. U ong va tafakkurni tahlil qilishga urg'u beradi. XVIII-XIX asrlarda Kant, Hegel kabi faylasuflar refleksiyani



bilish nazariyasi va ong taraqqiyotining muhim jihati sifatida o'rganganlar. XX asrda esa psixologiyadagi ishlarda refleksiya o'qitish va o'rganish jarayonlarida muhim metod sifatida ko'chirilgan. Shunday qilib, refleksiya tushunchasi ilk bor qadimgi Yunonistonda paydo bo'lib, keyinchalik falsafa, pedagogika va psixologiyada keng rivojlanib bordi.

Pedagogikada refleksiya tushunchasi XX asr boshlaridan boshlab alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Uning rivojlanishi o'qituvchi va o'quvchining bilim olish jarayonida o'z faoliyatini anglash, tahlil qilish va takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan.

Refleksiya rivojlanishining asosiy bosqichlari Jon Dewey, Lev Vigotskiy kabi olimlar tomonidan rivojlantirilgan. Jon Dewey – refleksiv fikrlashni ta'limning markaziy elementi sifatida ko'rdi. U fikr yuritish, muammo yechish va qaror qabul qilishda refleksiyaning rolini kuchli ekanligini ta'kidlagan. Olimning fikriga ko'ra, ta'lim bu – tajriba va refleksiya asosida o'sish. Lev Vigotskiy o'quvchilarning kognitiv rivojlanishida ichki nutq va refleksiv tafakkurning ahamiyatini ko'rsatgan. U refleksiyani ijtimoiy muloqotdan individual ongga o'tishdagi vosita sifatida izohladi. XX asrning ikkinchi yarmida – ta'lim metodikalarida refleksiv yondashuvlar kengroq qo'llana boshladi. O'qituvchilar o'z darslarini tahlil qilish, o'quvchilarning fikrlash jarayonlarini kuzatish orqali o'z amaliyotlarini :miy ravishga takomillashtirishga undaydi.

Adabiy ta'lim nafaqat o'quvchilarning bilimi va dunyoqarashini kengaytiruvchi, balki ularning ichki fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi asosiy fanlardan biridir. Adabiyot orqali o'quvchilar insoniy qadriyatlar, milliy madaniyat, tarix va ijtimoiy hayot bilan yaqindan tanishadi. Shu jarayonda, o'quvchilarning refleksini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Refleksiya bu — shaxsning o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarini chuqur tahlil qilish va ularga ongli baho berish qobiliyatidir. Bu qobiliyat, o'z navbatida, o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmasini oshiradi, ularga o'zlarini va atrofdagi voqelikni yanada teranroq tushunishga imkon beradi.²¹⁷ Refleksiya bu shaxsning o'z fikr-mulohazalari, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarini chuqur tahlil qilish va ularga baho berish qobiliyatidir. Adabiy ta'lim jarayonida refleksiya o'quvchilarni asar mazmunini nafaqat tushunishga, balki uni shaxsiy hayot va dunyoqarashga moslashtirishga undaydi. Masalan, Navoiy g'azallarini o'rganish jarayonida o'quvchilar faqat mazmunni tushunib qolmay, balki bu g'azallarning ularning ichki dunyosiga qanday ta'sir qilganini tahlil qilish imkoniga ega bo'ladilar. Bu jarayon orqali ular o'z his-tuyg'ularini anglab, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantiradilar. Adabiyot darslarida refleksiya orqali o'quvchilar asar voqealarini o'z hayotlari bilan bog'laydilar, insoniy qadriyatlarni chuqurroq his qiladilar va ijodiy yondashishni o'rganadilar. Shu tariqa, refleksiya adabiy ta'limning tarbiyaviy va o'quv maqsadlariga erishishda muhim vosita hisoblanadi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarini o'rganayotganda,

²¹⁷1. Abduqodirov, A. "Adabiy ta'limda tarbiyaviy ahamiyat: Nazariy va amaliy asoslar." Toshkent: Fan nashriyoti, 2019.



o'quvchilar Otabek va Kumush obrazlarini tahlil qilib, sevgining kuchi, vatanparvarlik va oila qadriyatlari haqida chuqur o'ylashlari mumkin. Bu jarayon o'quvchilarni nafaqat asarning mazmunini o'zlashtirishga, balki o'z hayotlariga oid muhim xulosalar chiqarishga ham chorlaydi. Shu orqali refleksiya ularga hayotiy qarorlar qabul qilishda yordam beradi.²¹⁸ Adabiy ta'limda o'quvchilar refleksini rivojlantirish ular uchun nafaqat ilmiy, balki tarbiyaviy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Refleksiya ularga o'z fikrlari va xatti-harakatlarini tahlil qilish, o'ziga xos xulosalar chiqarish imkonini beradi. Shu orqali o'quvchilar mustaqil fikrlashni o'rganadilar, asarlar orqali o'z hayotlariga oid muhim saboqlar oladilar va jamiyatning faol, ijodiy a'zolariga aylanadilar.²¹⁹ O'quvchilarning refleksiv fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, innovatsion usullardan va ijodiy yondashuvlardan foydalanishi zarur. Adabiy ta'lim orqali tarbiyalangan, fikrlash qobiliyati yuqori, ma'nan yetuk avlod kelajakda jamiyat taraqqiyotining poydevorini mustahkamlaydi. Shu sababli, adabiyot darslarida o'quvchilarning refleksini rivojlantirish o'quv jarayonining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi.²²⁰

Adabiy ta'limda o'quvchilar refleksiyasi – bu o'quvchilarning darslarda o'qigan asarlari yuzasidan o'z fikr-mulohazalari, his-tuyg'ulari, tushunchalari va baholarini mustaqil ravishda ifoda etishi, o'zining o'qish jarayonini anglash va unga munosabat bildirishidir. Bu jarayon o'quvchilarda ijobiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, o'z-o'zini baholash va estetik didni shakllantiradi. Mazmuniy refleksiya – o'quvchi asar mazmuni, syujet chiziqlari, qahramonlarining xatti-harakatlari ustida fikr yuritadi. Masalan, "Otabekning tanlovi to'g'rimi? Agar men uning o'rnida bo'lganimda qanday yo'l tutardim?" Emotsional refleksiya – asar o'quvchida qanday hissiyotlar uyg'otdi? Masalan, "Asarni o'qib yuragim ezildi. Kumushning fojiasi menga chuqur ta'sir qildi." Estetik, metakognitiv kabi refleksiyalar ham mavjud bo'lib, bu refleksiyalar orqali o'quvchi asar haqidagi fikrlari bayon etiladi. Adabiy ta'lim tabiiy estetik did va badiiy tafakkurni kuzatish, o'quvchilarda o'z – o'zini anglash, mustaqil fikrlash, etishtirish va xususiyatini ifoda ko'rish qobiliyatini rivojlantirishda ham muhim o'rin tutadi. yana, refleksga qayta nazar, tahlil qilish, yangilash) odamlarni rivojlantirish orqali o'zining ichki fikrlash jarayoni faollashadi, ularda mustaqil qaror chiqarish va tanqidiy shakllanadi. O'quvchilarning rivojlanishini rivojlantirishda qo'llaniladigan metodik belgilar mazmunan, ammo ta bo'lishi kerak. Jumladan, "Reflektiv suhbat", "Yozma mulohazalar (reflektiv kundalik)", "Fikrlar ishlab chiqarishi", "Dramatizatsiya va rolda ishtirok etish", "Tengdosh bahosi" kabi metodlar jismoniy bilimni samarali, balki har bir o'quvchining ichki dunyosi bilan ishlashga yordam beradi. Bu usullar o'quvchilarni passiv eshituvchidan

²¹⁸Xoliqov, S. "Adabiyot va ta'lim metodikasi." Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2021.

²¹⁹Qurbonova, M. "Ijodiy fikrlashni rivojlantirishda adabiyotning o'rne." Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 2020.

²²⁰Omonov, B. "Pedagogik texnologiyalar va adabiy ta'lim." Toshkent: Universitet nashriyoti, 2017.



faol ishtirokchiga aylantiradi. Pedagogika ilmida bolalar refleksiya­si­ning bolalarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Refleksiya - bu orqali o'zini va o'zini sinab ko'rish, o'z fikrlarini o'rganish va o'zgartirishga javob berish. Pedagogik jarayonda refleksiya­ga o'z shaxsiy dunyosini yordam beradi, ularning o'z shaxsiy dunyosini nazorat qilish va boshqalar bilan ijtimoiy aloqalarni kuzatishga yordam beradi. Bolalar refleksiya­si­ning rivojlanishi, asosan, yosh va bosqichlariga qarab o'zgarib boradi. Har bir yosh davri bolalar uchun o'ziga xos refleksivlarni tajriba hosil qilish va bu jarayon pedagogik faoliyatda to'g'ri ishlab chiqarish va metodik yordamni talab qiladi. Shunday qilib, o'qituvchilar bolalar refleksini oshirishda aqliy va emotsional yordamni yaxshilashga yordam beradi.

Bolalar refleksiya­si­ning pedagogik muammolari, uning ahamiyati, shakllanish bosqichlari va pedagogik metodlar orqali qanday rivojlantirilishi haqida so'z yuritiladi. Maq bolalar refleksiya­si­ni tahlil qilish - yaxshi pedagogik jarayonlarini ochib berish va uning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyatini qilishdir. Shuni, alohida ta'kidlash joizki, refleksiv ko'nikmalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarga moddiy matnni tahlil qilish, balki o'zlikni anglash va hayotiy pozitsiya­si­ni aniqlashga yordam beradi. Masalan, adabiyot obrazlariga baho berisda o'quvchilar o'z hayotiy tajribalari asosida fikr bildiradi. Bu esa qonuniy adabiy, balki axloqiy va ijtimoiy dunyoqarashini ham boyitadi. Metodik muhim omillardan biri – bosqichma-bosqich refleksiya texnologiyalarini joriy etishdir. bosqichki bosqichda savol-javoblar, yozma refleksiya, tahliliy muhokama, bahs-munozara bilan o'zlashtirish jarayoni amalga oshirish. Bu esa didaktik jarayonning bajarilishi va ongli olib borilishini ta'minlash. Buning uchun, bu metodik narsalarni ishlab chiqarishni savolga qo'llash uchun o'qituvchidan ijodiy ishlab chiqarish, o'quvchining fikrini tinglash va madaniyati talab qilish. Aks holda refleksiya yuzaki, mexanik jarayonga aylanib qolishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish – zamonaviy ta'limning asosiy pedagogik muammolaridan biridir. Chunki refleksiya orqali o'quvchilar faqat matnni tushunibgina qolmay, balki uni shaxsiy bilan bog'laydi, o'z fikrini asoslaydi, tahlil qiladi va ongli ishlab chiqarishga o'rganadi. Bu esa ta'limning chinakam ma'naviy-biyaviy va rivojlantiruvchi chinakam amalga oshirish. Ushbu muammoning metodik usuli sifatida refleksivlardan samarali yo'l, o'quvchilarda tanqidiy va mustaqil fikrlashni tuzatish metodik usullarni joriy etish, o'qituvchining savodxonlik va davolash usullarini ta'minlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov, A. "Adabiy ta'limda tarbiyaviy ahamiyat: Nazariy va amaliy asoslar." Toshkent: Fan nashriyoti, 2019.
2. Xoliqov, S. "Adabiyot va ta'lim metodikasi." Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2021.
3. Jo'raev, D. "O'quvchilarni o'qish orqali tarbiyalash: Refleksiya usullari." Toshkent: Sharq nashriyoti, 2018.



4. Qurbonova, M. "Ijodiy fikrlashni rivojlantirishda adabiyotning o'rni." Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 2020.

5. Omonov, B. "Pedagogik texnologiyalar va adabiy ta'lim." Toshkent: Universitet nashriyoti, 2017.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/BNAH1277

KEYS TEXNOLOGIYASINING O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

Qosimova Munisa Botirjon qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

munisakosimowa77@gmail.com

ORCID:0000-0001-9991-4897

Annotatsiya: Adabiyot darslarida keys texnologiyasidan foydalanishda o'quvchilar turli vaziyatlar bilan tanishadilar, mushohada qiladilar, jamoa bilan ishlash, vaziyatlarni tahlil qilish, qarorlar qabul qilish, mustaqil fikrlash, o'z-o'zlarini tanqid qilish, ijodiy fikr yuritishni o'rganadilar. Mazkur maqolada 11-sinf darsligida keltirilgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridan keys namunasi keltirilgan, jumboqli matn orqali vaziyatga qiziqtirilib, so'ng tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: case-study, vaziyat, g'oya, tahlil, tanqid, ma'lumot, matn, badiiy asar, yechim.

Аннотация: С помощью кейс-технологии студенты знакомятся с различной информацией, решают проблемы, учатся работать с обществом, анализировать литературу, принимать решения, мыслить самостоятельно, критиковать себя, мыслить творчески. В данной статье в учебнике для 11 класса рассматривается статья Юсуфа Хоса Хаджиба «Кутадгу Билиг» на примере кейса, текста-головоломки и анализируется ситуация.

Ключевые слова: кейс, ситуация, идея, анализ, критика, информация, текст, художественное произведение, решение.

Abstract: Using case technology, students get acquainted with various information, solve problems, learn to work with society, analyze literature, make decisions, think independently, criticize themselves, and think creatively. In this article, in the 11th grade textbook, the article from Yusuf Khos Hajib's "Kutadgu Bilig" is interested in and analyzed the situation through a case example, a puzzle text.

Keywords: case-study, situation, idea, analysis, criticism, information, text, artistic work, solution.

Bugungi globallashuv jarayoni jamiyatda plyuralizmga ehtiyoj borligini ta'kidlaydi hamda o'quvchilarning jahon miqyosida fikrlashini yoqlaydi. Mustaqil tafakkurni shakllantirishda o'quvchilarni mulohaza yuritishga yetaklaydigan topshiriqlar ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi. Bu esa asar tahlilida shunchaki voqealar ketma-ketligini gapirmasdan, o'quvchilarni o'ylab, mushohada yuritishga undash kerakligini tasdiqlaydi.

Keys-stadi usuli (inglizcha case-study – vaziyat, holatni o'rganish, tahlil qilish usuli) – real vaziyatni turli tavsiflardan foydalangan holatda o'quvchilarda aniq ko'nikmalarni shakllantirish texnikasi. O'quvchilar vaziyatni tahlil qilishlari,



<i>Botirova Nigora Nurulla qizi. DARSLIKLARDA BERILGAN HIKOYA NAMUNALARINI O'QITISH METODIKASI</i>	881
<i>Ibroximova Surayyoxon Shodibek qizi. ZAMONAVIY ADABIYOT DARSLARIDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH</i>	887
<i>Ismoilova Maxliyo Atxamali qizi. ADABIYOT O'QITISHDA EPISTOLYAR NAMUNALARDAN FOYDALANISH (MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK IJODI MISOLIDA)</i>	893
<i>Meliboyeva Dilafruz Abdurahim qizi. 6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI O'QISH MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH YUZASIDAN MULOHAZALAR</i>	898
<i>Meyliyeva Nasiba Tolmas qizi. 5–7-SINFLAR ADABIYOT DARSLARIDA SHE'RIY ASARLARNING BADIY TIL XUSUSIYATLARINI O'RGATISH METODIKASI: MIRTEMIR VA ANVAR OBIDJON SHE'RLARI MISOLIDA</i>	903
<i>Nomozova Dilobar Suyun qizi. FAXRIYOR SHE'RIYATINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR</i>	908
<i>Qodirova Dilnoza Alisher qizi. ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING REFLEKSIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA</i>	916
<i>Qosimova Munisa Botirjon qizi. KEYS TEXNOLOGIYASINING O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI</i>	920
<i>Raxmatova Karima Erkinovna. DRAMATIK YARATIQLARNI O'QITISH QANCHALIK MUHIM?</i>	925
<i>Saydullayeva Shoiraxan Kaxramon qizi. TARIXIY ROMANLARNI O'QITISHDA KONSPIROLOGIYA NAZARIYASIDAN FOYDALANISH</i>	930
<i>To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi. ADABIYOT DARSLARIDA INTERAKTIV O'QITISH MODELINING AMALIY TARAQQIYOTI VA AMALIYOTI</i>	935
<i>Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna. UMUMTA'LIM BOSQICHLARIDA "XAMSA" DOSTONINI O'QITISH</i>	942
<i>Xolova Sabina Jo'raqulovna. LIRIK ASARLARNI O'QITISHGA XOS YONDASHUVLAR (O'ZBEKISTON VA TURKIYA TA'LIM TIZIMI MISOLIDA)</i>	950
<i>Xudoynazarova Sug'diyona Tillamurodovna. ADABIYOT DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI</i>	953
<i>Xujanova Nilufar Do'smat qizi. GLOBALASHUV SHAROITIDA RAQAMLI SAVODXONLIKNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI</i>	958
<i>Xo'jayeva Mohinur Tulqinovna. ADABIYOT DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI</i>	964
<i>Norqulov Nurzod Saidmurodovich. MUMTOZ NASRIY ASAR TAHLILI YUZASIDAN ZAMONAVIY QARASHLAR</i>	968
<i>Abdullayeva Dildora Shokir qizi. ALISHER NAVOIY RUBOIY VA QIT'ALARINING BADIY KUCHI VA ULARNI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI</i>	972

